



**Volume: 70 / 2026**  
**Economy and Innovation**  
**ISSN: 2545-0573**

For more information contact: [editor@gospodarkainnowacje.pl](mailto:editor@gospodarkainnowacje.pl)

## ASSESSMENT OF KEY MACROECONOMIC INDICATORS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna<sup>1</sup>, Ismailova Durdona Samariddin qizi<sup>2</sup>*

<sup>1</sup>*Senior Lecturer, Department of Economic Theory Samarkand Institute of Economics and Service (SamISI) PhD*

<sup>2</sup>*Samarkand Institute of Economics and Service (SamISI)*

\*Correspondance: [zubaydashodmonova@gmail.com](mailto:zubaydashodmonova@gmail.com)

### ARTICLE INFO.

**Keywords:** macroeconomics, GDP, inflation, foreign trade, economic growth, Uzbekistan.

### Abstrak

This article analyzes the main macroeconomic indicators of the Republic of Uzbekistan for 2021–2025 - the dynamics of gross domestic product growth, inflation rate, foreign trade balance, development trends of industrial and service sectors. The study is based on official statistical data and scientific works of local and foreign economists. Based on the results of the analysis, it is proven that the national economy is developing towards sustainable growth, problems in the sectors are identified, and practical proposals are developed to increase economic efficiency.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2026 LW

## Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kechayotgan tez o'zgaruvchan jarayonlar, geosiyosiy beqarorlik va global raqobatning kuchayishi sharoitida har bir davlat o'z milliy iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda [1]. O'zbekiston Respublikasi ham 2017 yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar doirasida bozor mexanizmlarini takomillashtirish, xususiy mulkchilikni kuchaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'lida izchil siyosat yuritib kelmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni muntazam va chuqur tahlil qilish davlat iqtisodiy siyosatining samaradorligini baholash, zaif tomonlarni aniqlash va kelajakka mo'ljallangan asosli qarorlar qabul qilish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi [2], [3]. Ayniqsa, O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sur'atlari 2021 yildan 2025 yilga qadar izchil oshib, YaIM hajmi 152,9 trln so'mdan 333,6 trln so'mga yetgani bu masalaning ilmiy jihatdan o'rganilishini yanada dolzarb qilmoqda. Shunday ekan, milliy iqtisodiyotning real holatini kompleks baholash, o'sish drayverlari va to'siqlarini aniqlash bugungi kunda ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi [4].

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, iqtisodiy o'sishning asosiy omillari va tendensiyalarini aniqlash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

## Adabiyotlar tahlili

O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari — YaIM o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, tashqi savdo balansi va davlat byudjeti holati — mamlakatning iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini baholash hamda kelajakka mo'ljallangan samarali iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi [5], [6]. Mazkur ko'rsatkichlarni tahlil qilish, ayniqsa 2017 yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar sharoitida, mamlakatning barqaror o'sish yo'lini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu dolzarb mavzu bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar, jumladan Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki ekspertlari hamda O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan turli xil g'oyalar, yondashuvlar va ilmiy qarashlar ilgari surilgan [7].

Jumladan, O'zbekiston respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy saytiga joylagan statistic ma'lumotlardan birida “Energetika mahsulotlari yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan jahon birjalarida neft (Brent) narxi -3,3 foizga, benzin (NY) narxi -13,2 foizga, tabiiy gaz NY -21,8 foizga (London birjasida -8,3 foizga va Niderlandiyada -8,4 foizga) va ko'mir (Rotterdam) -24,5 foizga arzonlashgan bo'lsa, uran (CME) narxi +99,2 foizga oshdi. Jahon birjalarida tabiiy uran narxining oshishi ushbu tovar eksportini 31,1 mln dollarga oshirdi.” Deya xabar beradi [8], [9].

Bundan tashqari, Chorshanbayev.U , Abdumo'minova.Z , va Egamnazarova.A lar tomonidan yozilgan “2025-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi” nomli maqolasida “Dunyodagi murakkab va noaniq vaziyat, jahon iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini saqlab kelmoqda [10]. Byudjet loyihasining asosini tashkil etuvchi va nashrning birinchi bo'limida keltirilgan 2025-yilga mo'ljallangan pragnozga ko'ra, iqtisodiy o'sish sur'ati 6% ni tashkil etadi. 2026-2027 yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari mos ravishda 6,1% va 6,3% gacha oshishi kutilmoqda” deb aytadi.

## Metodologiya

Farmonov.I.I ning “O‘zbekiston respublikasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari” nomli maqolasida ham “Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar har qanday davlat iqtisodiyotining barqarorligini va rivojlanish sur‘atlarini baholash uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida bu ko‘rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish jarayoni so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, xalqaro standartlarga moslashish yo‘nalishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda” degan fikrlarni bildirib o‘tgan.

Qo‘shimcha qilib aytganda, Bozorova.G.B. ning “Analysis of Macroeconomic Indicators of the Republic of Uzbekistan” nomli maqolasida “In recent years, the economy of Uzbekistan has implemented fundamental measures for economic reform aimed at improving the efficiency of market mechanisms and strengthening private property. Given the significantly increased number of working-age populations, the country's top priority is to create new jobs and improve working conditions. Uzbekistan has already implemented the first wave of important economic reforms, including liberalization of the currency market, tax reform and serious improvement of statistics.” deb aytib o‘tgan.

## Tahlil va natijalar

Adabiyotlarni o‘rganish natijasida O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari — YaIM o‘sish dinamikasi, inflyatsiya darajasi, tashqi savdo balansi va davlat byudjeti holati — mamlakatning iqtisodiy rivojlanish jarayonini to‘liq aks ettiruvchi muhim mezonlar ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Shuningdek, 2017 yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar doirasida valyuta bozorini liberallashtirish, soliq tizimini takomillashtirish va tarkibiy o‘zgarishlar makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda hal qiluvchi rol o‘ynaganligini ham aniqladik [11]. Ushbu bo‘limda yuqorida keltirilgan nazariy asoslar va adabiyotlar tahlilidan kelib chiqqan holda, mavjud statistik ma‘lumotlar va empirik ko‘rsatkichlar asosida O‘zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati va rivojlanish tendentsiyalari batafsil tahlil qilinadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.02.2025 yildagi 104-son li qaroridan asosiy ko‘langan asosiy maqsadi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining (MHTI) faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish va uning samarali ishlashini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan bo‘lib, mazkur hujjat orqali institutning asosiy vazifalari, ya‘ni makroiqtisodiy tahlil, inflyatsiya monitoringi, investitsiya siyosatini takomillashtirish, hududiy rivojlanish, qishloq xo‘jaligi, kambag‘allikni qisqartirish va inson kapitali kabi yo‘nalishlarda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda davlat boshqaruvi qarorlarini ilmiy tadqiqotlar bilan ta‘minlash mexanizmi belgilab qo‘yilgan.

2025-yilning yanvar-oktabr oylari davomida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti barqaror o‘sish tendensiyasini saqlab qoldi. Real sektorda qurilish tarmog‘i yetakchi o‘rinni egalladi — tarmoq hajmi 114,7 foizga yetib, o‘tgan yilgi ko‘rsatkichdan sezilarli darajada oshdi. Sanoat ishlab chiqarishi ham 106,7 foizlik o‘sish bilan mustahkam dinamikasini saqlab kelmoqda [12], [13]. Parallel ravishda tashqi iqtisodiy faollikda ham ijobiy siljishlar yuz berdi: eksport hajmi 127,8 foizga ko‘tarilib, import o‘sish sur‘atini (7,5 foiz) ancha ortda qoldirdi. Bu esa tashqi savdo balansining yaxshilanishiga va valyuta bozoridagi bosimning kamayishiga zamin yaratdi.

Iste'mol bozori va narxlar barqarorligi borasida ham ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Iste'mol narxlari indeksi o'tgan yildagi 107,7 foizdan 105,7 foizga tushdi, ya'ni inflyatsiya 2 foiz punktga sekinlashdi. Bu aholining xarid qobiliyatini oshirishda muhim omil bo'ldi. Natijada chakana savdo 110,3 foiz, xizmatlar sohasi esa 114,4 foizlik o'sishni namoyish etdi [14]. Ishbilarmonlik muhitida esa bozor konsolidatsiyasi jarayoni kuzatildi: ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni kamayib, faoliyat yuritayotgan subyektlar soni 465 944 tani tashkil etdi, bu esa iqtisodiyotning yanada samarali va raqobatbardosh tuzilma sari evolyutsiyasidan dalolat beradi.


### 1-jadval

#### “Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot”

Ko'rsatkichlar	2024 yil yanvar– mart (mlrd so'm)	2025 yil yanvar– mart (mlrd so'm)	O'sish sur'atlari (%)	YaIM o'sishidagi hissasi (%)
<b>YaIM – jami</b>	276 923,5	333 592,7	106,8	6,8
<b>Shu jumladan:</b>				
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	268 905,5	319 817,0	106,8	6,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26 223,9	30 448,1	103,8	0,4
Sanoat	74 629,2	89 119,9	106,5	1,7
Qurilish	17 838,1	20 865,3	110,7	0,7
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	33 120,2	39 115,7	108,8	1,0
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	24 531,2	32 018,9	114,3	1,3
Boshqa xizmat tarmoqlari	92 562,9	108 249,1	104,5	1,5
Mahsulotlarga sof solliqlar	8 018,0	13 775,7	107,2	0,2

Quyidagi jadvalga ko'ra, 2025 yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti 276 923,5 mlrd so'mdan 333 592,7 mlrd so'mga oshib, 106,8 foizlik o'sish sur'atiga erishdi. Tarmoqlar kesimida eng yuqori o'sish tashish, saqlash, axborot va aloqa sohasida — 114,3 foiz, qurilish tarmog'ida esa 110,7 foiz darajasida qayd etildi. Savdo va xizmatlar sohasi 108,8 foiz, sanoat 106,5 foiz o'sish bilan barqaror dinamikani namoyish etdi. Qishloq xo'jaligi esa nisbatan past — 103,8 foizlik ko'rsatkich bilan o'sishda ortqada qolmoqda [15].

YaIM o'sishiga qo'shilgan hissalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat tarmog'i 1,7 foiz punkt bilan yetakchi o'rinni egallagan, tashish va aloqa sohasi 1,3 foiz punkt, boshqa xizmat tarmoqlari esa 1,5 foiz punkt hissa qo'shgan. Mahsulotlarga sof soliqlar ham 8 018,0 mlrd so'mdan 13 775,7 mlrd so'mga oshib, iqtisodiy faollikning kuchayganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, mazkur ko'rsatkichlar milliy iqtisodiyotning barqaror va ko'p tarmoqli o'sish yo'lida rivojlanayotganini yaqqol namoyon etadi.



**1-rasm. “YIM xajmi va o’sish sur’atlari, yanvar-mart”**

Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti 2021 yildan 2025 yilgacha izchil o'sib borgan. YaIM hajmi 2021 yilgi 152,9 trln so'mdan 2025 yilda 333,6 trln so'mga yetib, besh yil ichida 2,2 barobarga oshgan. Bu raqamlar milliy iqtisodiyotning yildan-yilga kengayib borayotganini va makroiqtisodiy barqarorlik saqlanib qolayotganini yaqqol ko'rsatadi.

O'sish sur'atlari dinamikasi ham ijobiy tendensiyaning namoyishi etmoqda. 2021 yilda 104,8 foiz bo'lgan o'sish sur'ati 2022 yilda 105,1 foizga, 2023 va 2024 yillarda 106,4 foizga, 2025 yilda esa 106,8 foizgacha oshdi. O'sish sur'atlarining yildan-yilga asta-sekin yuqorilashib borishi iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilayotganidan va investitsion muhitning yaxshilanib borayotganidan dalolat beradi.

## **Xulosa va takliflar**

2025 yilning yanvar-mart oylaridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini saqlab kelmoqda. YaIM hajmi 333,6 trln so'mga yetib, o'sish sur'ati 106,8 foizni tashkil etdi. Tarmoqlar kesimida sanoat, qurilish, tashish va aloqa sohalari o'sishning asosiy drayverlariga aylangan bo'lsa, qishloq xo'jaligi nisbatan past sur'atda rivojlanmoqda. Eksport hajmining 127,8 foizga oshishi, inflyatsiyaning 105,7 foizgacha pasayishi va chakana savdoning 110,3 foizga o'sishi iqtisodiyotning ichki va tashqi muvozanatini mustahkamlab borayotganidan dalolat beradi.

Olib borilgan tahlil asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, qishloq xo'jaligi tarmog'ini modernizatsiya qilish va agrotexnologiyalarga investitsiyalarni kengaytirish zarur, chunki ushbu tarmoq YaIM o'sishiga qo'shayotgan hissasi hali ham yetarli darajada emas.

Ikkinchidan, eksport salohiyatini yanada oshirish maqsadida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va xom ashyo eksportiga bog'liqlikni kamaytirish lozim.

Uchinchidan, inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish uchun monetar va fiskal siyosat o'rtasidagi muvozanatni saqlash hamda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni davom ettirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, kichik va o'rta biznes subyektlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

## REFERENCES

- [1] O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, "Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar," [Online]. Available: <https://gov.uz/oz/imv/sections/view/8929>
- [2] U. Chorshanbayev, Z. Abdumo'minova, and A. Egamnazarova, "2025-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi," EITT, no. 4, pp. 102–108, 2025. [Online]. Available: <https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/2571/2399>
- [3] I. I. Farmonov, "O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari," [Online]. Available: <https://media.neliti.com/media/publications/665547-ozbekiston-respublikasida-makroiqtisodiy-5af05096.pdf>
- [4] G. B. Bozorova, "Analysis of Macroeconomic Indicators of the Republic of Uzbekistan," [Online]. Available: <https://zenodo.org/records/6778348>
- [5] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, "Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida," Qaror No. 104, Feb. 21, 2025. [Online]. Available: <https://lex.uz/uz/docs/-7396051>
- [6] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, "Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot," [Online]. Available: <https://stat.uz>
- [7] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, "Rasmiy statistika ma'lumotlari portali," [Online]. Available: <https://stat.uz/uz/>
- [8] O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, [Online]. Available: <https://lex.uz/>
- [9] World Bank, \*World Development Indicators\*. Washington, DC: World Bank, 2022.
- [10] International Monetary Fund (IMF), \*World Economic Outlook\*, Washington, DC: IMF, 2023.
- [11] OECD, \*Economic Outlook 2023\*. Paris: OECD Publishing, 2023.
- [12] M. Porter, \*The Competitive Advantage of Nations\*. New York: Free Press, 1990.
- [13] N. G. Mankiw, \*Principles of Economics\*, 8th ed. Boston: Cengage Learning, 2021.
- [14] P. Samuelson and W. Nordhaus, \*Economics\*, 19th ed. New York: McGraw-Hill, 2010.
- [15] Asian Development Bank (ADB), \*Asian Development Outlook 2023\*. Manila: ADB, 2023.